



OILA VA GENDER
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILANING **MA'NAViy-AXLOQIY** **MUHITI**

OTA-ONALAR UCHUN USLUBIY QO'LLANMA



M.QURONOV, X.ABDURAMANOV

V

Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori

Oldingi foydalanishlar miqdori	

56

-5160-

iy axloqiy muhiti

axmonov



OILA VA GENDER
ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI

M.QURONOV, X.ABDURAMANOV

OILANING MA'NAViy- AXLOQIY MUHITI

USLUBIY QO'LLANMA

"Pages print" nashriyoti,
Toshkent - 2025

Handwritten signature

V

KIRISH

Oilaning ma'naviy-axloqiy muhiti undagi hamma yayrab yashaydigan ma'naviy "ob-havo". Bu oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ular uchun aziz bo'lgan qadriyatlar, an'analar, voqealar, yodgorliklar, o'zaro munosabat normalari sog'lom hamda hamma uchun maqbul bo'lgan qulay sharoitdir.

Oilaning asosiy vazifasi uning barcha a'zolarini qo'llab-quvvatlash, sevgi, ishonch hissini baxsh etish, har qanday qiyin vaziyatda bir-biriga yordam berishdir. Tuyg'ular orqali oila a'zolari atrofdagi dunyoni idrok etadilar. Shuning uchun aytishimiz mumkinki, oiladagi muhit odamning hayotdan rozi yoki noroziligiga bevosita ta'sir qiladi.

Oilada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit qanday bo'ladi? Har bir oila a'zosi uyga shoshadi, uyga qaytayotganidan esa xursand bo'ladi. Uydagilarni, qarindoshlarini sevadi. Ular bilan birga ko'p vaqt o'tkazishni xohlaydi. Bunday oilada qayg'u va qiyinchiliklarga dosh berish oson. Shuningdek, oila a'zolari ochiqko'ngil va muvaffaqiyatli bo'ladi, chunki hamma bir-biriga ko'maklashadi.

Ma'naviy-axloqiy muhiti nosog'lom bo'lgan oilalarda kelishmovchiliklar ko'p bo'ladi. Bunday oilalarda oila a'zolari doim tashvishli va bezovta bo'lib, bir-birlariga ishonishmaydi va hamdard bo'lishmaydi. Ko'pincha janjallashishadi, bir-biri bilan kelishmaydi

hamda hamma uchun maqbul yechimni topa olishmaydi. Bunday oilaning a'zosi biror muammoga duch kelsa, ko'pincha unga oila, qarindoshlari emas, balki begonalar yordam berishadi.

Ayniqsa, yosh oilalar uchun bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, oilaviy munosabatlar, asosan, turmushing birinchi yillarda shakllanadi. Mana shu ilk bosqichdagi muvaffaqiyatli muloqot, hurmat, bag'rikenglik va mas'uliyatli yondashuv keyinchalik butun turmush tarziga ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur qo'llanma nikohlanuvchilar, farznadli bo'lishni rejalashtirayotganlar va yosh oilalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda oilaviy ma'naviy muhitning mohiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari, nosog'lom muhit belgilari va ularning yechimlari to'g'risida aniq hamda amaliyotga asoslangan tavsiyalar beriladi. Shu bilan birga, qo'llanma orqali yosh oilalar o'z munosabatlarida samimiyat, sog'lomlik va mustahkamlikka erishish yo'llarini bilib oladilar.

OILANING MA'NAViy-AXLOQiy MUHITI NIMA?



“

Oila – jamiyatning asosiy tayanchi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar e'zozlanadigan hamda avloddan avlodga o'tadigan muqaddas maskan. Oilani rejalashtirish – juda mas'uliyatli va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan oilaning ma'naviy-axloqiy muhitiga bog'liq.

”

Oilaning ma'naviy-axloqiy muhiti oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ularning bir-biriga bo'lgan hurmati, ishonchi, axloqiy normalarga rioya etishi, insoniy qadriyatlarning ustuvorligi bilan belgilanadi. Bu muhit nafaqat farzand tarbiyasiga, balki farzandli bo'lishga tayyorgarlik, nikoh mustahkamligi va umumiy hayotiy faoliyatga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy muhit oilaviy barqarorlik, o'zaro samimiy munosabatlar va farzandlar uchun sog'lom ruhiy muhit yaratadi. Ma'naviy muhiti mustahkam oilalarda ajralish ehtimoli kam bo'lib, psixologik muvozanat yuqori va ruhiy sokinlik hukm suradi.

MA'NAViy-AXLOQiy MUHITNING ASOSiy TARKIBiy QISMLARI

OTA-ONANING O'ZARO MUNOSABATI

Oilani rejalashtirishda eng asosiy omillardan biri – ota va onaning o'zaro munosabatidir. Bu munosabat faqat hissiy emas, balki aqliy, axloqiy va mas'uliyatli yondashuvlarni ham qamrab oladi. Ota-ona o'rtasidagi munosabatlar sog'lom bo'lsa, ularning har bir qarori, jumladan, farzandli bo'lish yoki uning soni, tarbiyasiga doir masalalardagi kelishuvlari ham uyg'un va maqsadga muvofiq kechadi.

Ota-onaning bir-biriga bo'lgan hurmati – oilaning ma'naviy muhitidagi muhim qadriyatlardan biri bo'lib, er-xotin o'rtasida o'zaro ishonch, hamjihatlik va barqaror munosabatlarni shakllantiradi. Bunday hurmat er-xotinning shaxsiy qadr-qimmatini tan olish, bir-birining fikrlarini diqqat bilan tinglaydigan, tushinadigan, qaror qabul qilishda teng huquqli va o'zaro maslahatlashuvchi sherik sifatida faol ishtirok etishida namoyon bo'ladi.



Agar er-xotin bir-birining shaxsiy fazilatlarini qadrlasa, har qanday qaror qabul qilishda, jumladan, farzandli bo'lish, uning tarbiyasi kabi masalalarda ham o'zaro tushunish, bag'rikenglik va hamjihatlik asosida yo'l topiladi.

Ishonch esa, oilani bir butun tutib turuvchi ruhiy ko'prikdir. Turmush o'rtog'ining fikriga, qarorlariga, mas'uliyatiga ishongan erkak yoki ayol o'zini xotirjam his qiladi. Bu holat farzand tarbiyasida ham namoyon bo'lib, bolaga ham ruhiy barqarorlik baxsh etadi.

Mehr-muhabbat – oilani ruhiy ozuqa bilan ta'minlovchi kuchdir. Er va xotin o'rtasida mehribonlik, ruhiy yaqinlik bo'lsa, bunday muhitda farzand dunyoga kelishdan oldin ham ota-ona bu mas'uliyatni mehr bilan qabul qiladi. Farzandli bo'lish faqat biologik jarayon emas, balki ichki tayyorgarlikni, muhabbat asosida qaror qabul qilishni talab qiladi. Shuning uchun, turmush o'rtog'ining hissiyotiga befarq bo'lmaslik, bir-birini qo'llab-quvvatlash oilani rejalashtirishda asosiy psixologik tayyorgarlik hisoblanadi.

Oilani rejalashtirishda turmush o'ртоqlar o'rtasidagi yakdillik juda muhim. Masalan:



bo'lajak farzand soni va uni dunyoga keltirishga tayyorlik vaqtini birgalikda muhokama qilish



uy-joy va moliyaviy masalalarda umumiy strategiya tuzish



oilaviy maqsadlarni belgilash

Bularning barchasi o'zaro kelishuv asosida bo'lsa, oilada tushunmovchiliklar kamayadi, qarorlar rejali holda amalga oshiriladi.

Er-xotin turlicha fikrlashi mumkin, lekin fikrlarini hurmat qilish va umumiy maqsadlarga intilish ularni birlashtiradi. Bu holat farzand tarbiyasida yakdil yondashuvni ta'minlaydi.

Unutmang!

Ota-onaning o'zaro munosabati – farzand uchun birinchi darsdir.

U bola tomonidan kuzatiladi, singdiriladi, namuna sifatida qabul qilinadi. Agar ota va ona bir-birini qo'llab-quvvatlasa, bola oila muhitini ijobiy deb qabul qiladi va o'z hayotida ham ana shunday munosabatlar tizimini shakllantirishga intiluvchi shaxs bo'lib voyaga yetadi.

OTA-ONANING O'ZARO MUNOSABATINI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA MASLAHATLAR

1. Har bir qarorni birgalikda qabul qiling.



Farzandli bo'lish, moliyaviy xarajatlar, uy-joy yoki ta'lim-tarbiya bilan bog'liq masalalarni bir-biringiz bilan muhokamasiz hal qilmang.

2. O'zaro hurmatni doimo saqlang.

Hurmat munosabatlarning ilk va eng muhim poydevoridir. Hech qachon bir-biringizni kamsitmang, ovoz ko'tarmang, bola oldida bir-biringizni tanqid qilmang. Farzand samimiy muhitda tarbiya topishi kerak.



3. Bir-biringizni tinglashni o'rganing.

Munosabatlardagi aksariyat muammolar bir-birini eshitmaslikdan, tushunmaslikdan kelib chiqadi. Turmush o'rtog'ingizning gapirishiga imkoniyat bering va uni chin dildan tinglang. Bu ishonchni mustahkamlaydi.



4. Minnatdorlik bildirishni unutmang.

Har kuni, hatto kichik ishlar uchun ham "Rahmat", "Baxtinga yaxshiyam siz borsiz" deyishni odat qiling. Bunday samimiy so'z orqali oilada mehr kuchayadi.



5. Bir-biringizga ruhiy dalda bering. Ota yoki ona stressda, charchagan yoki ruhan tushkun bo'lsa, unga "hech narsa bo'lmagandek" emas, "men siz bilanman" degan hisni bering. Erkak hamisha qahri qattiq shaxs emas balki oilaning suyangan tog'i, madodkoridir. Erkakning vazifasi faqat pul topishdan iborat emasligini unutmang.



6. Farzand masalasida yakdillikka erishing.

Qachon farzandli bo'lish, uni qanday tarbiyalash kabi savollar bo'yicha yakdil qaror qabul qiling. Bu muammolarni keyinga qoldirish munosabatlarga ta'sir qiladi.



7. Birgalikda vaqt o'tkazing. Kundalik hayotda birgalikda sayr qilish, kechki ovqat paytida suhbatlashish, kino ko'rish yoki umumiy "xobbi"lar bilan shug'ullanish munosabatlarni mustahkamlaydi va ruhiy yaqinlikni oshiradi.



8. Maqsadlaringizni uyg'unlashtiring. Oilaviy rejalar tuzing. Masalan, 5 yilda o'z uyimiz bo'ladi, farzand ta'limi uchun jamg'arma to'playmiz. Aytish joizki, umumiy maqsadlar juftlikni yanada jipslashtiradi.



9. O'zaro kechirimli bo'ling. Hech kim mukammal emas, munosabatda xatolar bo'ladi. Bunday vaziyatlarda kechirimli bo'ling. O'ylab ko'ring! Siz xato qilmagnisiz?



10. Oilaviy qadriyatlar asosida yashang. Oilangizda nimalar ustuvor: rostgo'ylikmi, sadoqatmi, bag'rikenglikmi? Bu qadriyatlarni birgalikda belgilab oling va hayotingizda ularga asoslaning. Bu farzand uchun ham mustahkam poydevor bo'ladi.



AXLOQiy QADRIYATLAR

Axloqiy qadriyatlar oilada insonning xatti-harakatlarini, munosabatini, qarorlarini belgilab beradigan mustahkam tamoyillardir. Oilani rejalashtirishda axloqiy qadriyatlar ustuvor o'rin tutsa, u holda farzand dunyoga kelishi ham, uning rivojlanishi ham ma'naviy jihatdan yuksak muhitda kechadi. Bu esa kelajakda jamiyat uchun mas'uliyatli, insonparvar shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi.

Axloqiy qadriyatlar deganda insonda shakllanadigan va uning nafaqat jamiyat, balki oiladagi munosabatlarida ham namoyon bo'ladigan universal va milliy axloq normalari nazarda tutiladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- insonparvarlik;**
- sadoqat;**
- halollik;**
- adolat;**
- sabr-toqat;**
- qayg'urish va mehr;**
- hurmat va kechirimlilik.**

Bu fazilatlar oilada shakllansa, nafaqat ota-ona, balki farzand ham shu qadriyatlarni o'z hayotida qo'llashga o'rganadi.

Insonparvar ota-ona farzandga mehribonlik, bag'rikenglik va e'tibor bilan munosabatda bo'ladi. Farzand ko'rishni rejalashtirish jarayonida ham bu his insonni bola dunyoga kelishiga jiddiy

munosabatda bo'lishga, uning ruhiy va jismoniy rivojlanishi uchun zarur muhit yaratishga, uning ehtiyojlarini his etishga undaydi.

Sadoqatli turmush o'rtoqlar farzandli bo'lish qarorini shoshma-shosharlik yoki tashqi bosim bilan emas, balki oilaviy muhokama va ikki tomonlama mas'uliyat asosida qabul qiladi. Ularning munosabatida barqarorlik va ishonch ustuvor bo'lib, farzand tarbiyasida ham bu yuksak mas'uliyat namoyon bo'ladi.

Halollik asosida tarbiyalangan bolalar kelgusida bironing haqqiga xiyonat qilmaydigan, ro'stgo'y va ishonchli do'st bo'lib ulg'ayadi.

Oilada adolat hissi qadriyati ustuvor bo'lsa, farzandlarga nisbatan munosabatda tenglik, xolis baholash, imkoniyat yaratish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Adolatli muhitda o'sgan bola ham hayotda haqqo'y va mas'uliyatli inson bo'lib kamol topadi.

Farzand dunyoga kelishidan oldin va undan keyin turli sinovlar, moddiy va ruhiy qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Bu jarayonlarda otaning sabr-toqatli bo'lishi ularning muvaffaqiyatli tarzda farzand tarbiyasiga kirishishga zamin yaratadi.

Agar oilada axloqiy qadriyatlar ustuvor bo'lsa, bola quyidagi fazilatlarga ega bo'ladi:

- *insonlarga mehribonlik;*
- *haqqo'y bo'lish;*
- *kichiklarga g'amxo'r, kattalarga hurmatda bo'lish;*
- *harakatlarda mas'uliyat va ishonch;*
- *axloq normalariga rioya qilish.*

Bu esa uning nafaqat oilada, balki maktabda, do'stlar davrasida va kelgusidagi mehnat muhitida ham ijobiy shaxs sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

OILADA AXLOQiy QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA OTA-ONALARGA MASLAHATLAR



1-MASLAHAT

Oilada sog'lom axloqiy muhitni shakllantiring.

Ota-ona bo'lish faqat fiziologik emas, ma'naviy mas'uliyat hamdir. Bolaning kelajakdagi xulq-atvori ko'p jihatdan uning atrofdagi muhitga bog'liq. Shu bois, oila muhitida mehr, hurmat, bag'rikenglik kabi qadriyatlarni rivojlantirishga kirishing.

2-MASLAHAT

Ota-onalikka ma'naviy tayyorgarlik ko'ring.

Farzandga nafaqat kiyim va ozuqa, balki axloqiy tarbiya, ruhiy quvvat, madaniyat ham kerak. Ota-ona bo'lishni rejalashtirayotganda, o'zingizdagi sadoqat, rostgo'ylik, sabr-toqat kabi fazilatlarga nazar tashlang. Ular farzandga sizning axloqiy merosingiz bo'ladi.

3-MASLAHAT

Oilaviy axloq qoidalarini ishlab chiqing.

Oilada amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalarni belgilab oling: "Bir-birimizni kamsitmaymiz" va h.k.

4-MASLAHAT

Bir-biringizga axloqiy jihatdan namuna bo'ling.

Siz farzand dunyoga kelishidan oldin ham bir-biringiz uchun ma'naviy ko'zgu hisoblanasiz. Bunday muhitda farzand keyinchalik faqat so'z bilan emas, amal bilan o'rganadi. Turmush o'rtog'ingizga murojaat qilganda, qattiq va haqoratli so'zlar o'rniga mehrlil, odobli, axloqqa mos iboralardan foydalaning. Bu sizning ichki tarbiyangiz, turmush o'rtog'ingizga bo'lgan hurmatingizni namoyon etadi. Siz turmush o'rtog'ingizga qanday murojaat qilsangiz, farzandingiz ham shunday deb chaqiradi. Misol uchun, dadasi, oyisi va hokazo.

5-MASLAHAT

Ota va ona sifatida o'zingizni doim rivojlantiring. Axloqiy kitoblar o'qish, ma'rifiy suhbatlarda qatnashish, bilimni oshirish orqali farzandga boy ma'naviy meros qoldira olasiz. Farzandingizga kitob o'qi deb maslahat berib, o'zingiz telefon "titkilab" o'tirsangiz, u hech qachon kitobxon bo'lmaydi. Aksincha, siz kitob o'qisangiz, u ham siz bilan birga o'qiydi.

6-MASLAHAT

Tarbiyada "jazo" emas, "tushuntirish va rag'bat" usulini tanlang. Farzandni xatolari uchun qattiq jazolash emas, uning xulq-atvorini so'z orqali tahlil qilish, axloqiy nuqtayi nazardan izohlash samaraliroq bo'ladi. Bolalar muhabbatga asoslangan muhitda tezroq rivojlanadi. Jazo ustuvor bo'lgan muhitda esa qo'rquv va yopiqlik yuzaga keladi. Shuning uchun, har bir "yo'q" ortida izoh bo'lsin, har bir "ha" ortida ishonch va muhabbat bo'lsin. Misol uchun, yolg'on gapirish mumkin emas, u fosh bo'lganida insonlarning dilini og'ritadi.

O'ZARO MAS'ULIYAT TUYG'USI

Oila mustahkamligi, uning rivoji va kelajakda farzand tarbiyasi bilan bog'liq muvaffaqiyatlar, avvalo, o'zaro mas'uliyat tuyg'usiga bog'liq. Er-xotinning o'zaro munosabati va farzand tarbiyasiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishi oilaviy qarorlarni rejali, ruhiy va axloqiy barqaror muhitda qabul qilish imkonini beradi. Bunday munosabat faqat moddiy tayyorgarlik emas, balki ma'naviy, psixologik va ijtimoiy yetuklikni ham talab qiladi.

Mas'uliyat – zimmamizdagi vazifalarni ado etish, har bir harakatimiz uchun o'zimizga javob berishga tayyor bo'lish, natijalarni oldindan his etib, shunga yarasha qaror qabul qilish.

O'zaro mas'uliyat tuyg'usi esa oiladagi har bir shaxsning boshqa a'zolarning ehtiyojlari va holatini hisobga olishi, o'z vazifalarini to'g'ri taqsimlashi, oilaning umumiy farovonligi uchun hissa qo'shishi kabi xulq-atvorlar majmuasini anglatadi.

Farzandli bo'lishni rejalashtirish – ikki insonning hayotidagi katta burilish nuqtasi bo'lib, bu qaror bir tomonlama qabul qilinmasligi, er-xotinning tayyorgarligi, istaklari va imkoniyatlari hisobga olinishi bilan maqsadga muvofiq bo'ladi. Mas'uliyatni his qilgan er-xotin bu jarayonga shoshmasdan, puxta o'ylab kirishishadi. G'arb kinofilmlarida er-xotinning farzand ko'rish uchun bir-birini ko'ndirishi sahnalarini eslang.

Farzand ota-onaning o'z vazifasiga qanday munosabatda ekanini kuzatib, uni o'ziga singdiradi. Agar ota-ona vaqtida uy ishlarini bajarsa, bola ta'lim-tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashsa, bir-biriga yordamchi va hurmatli bo'lsa bola ham o'z hayotida javobgarlikni his qiladigan, mustaqil fikrli va mehnatsevar shaxs bo'lib rivojlanadi.



O'ZARO MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA OTA-ONALARGA MASLAHATLAR

1.

Qarorlarni birgalikda qabul qiling. Farzandli bo'lish, uni tarbiyalash, moliyaviy rejalar tuzish kabi muhim masalalarda er va xotin birgalikda muhokama qilib, qaror qabul qilishlari lozim. Bu bir-birini tinglash va hurmat qilishga asos bo'ladi.

2.

Vazifalarni aniq taqsimlang va ularga rioya qiling. Uy ishlari, bola parvarishi, ish va ta'lim masalalarida ota-onaning birgalikdagi hissasi bo'lishi shart. Oilada ishni jins yoki an'analarga qarab emas, balki o'zaro kelishuv va tenglik asosida taqsimlash muhim.

3.

Bir-biringizning mehnatingizni qadrlang. Har ikki tomon ham oila farovonligi uchun harakat qiladi. Shunday ekan, "Men ko'proq ish qildim", "Sen uyda o'tirsang, men ishlayman" kabi tushunmovchiliklar o'rniga har biriga "Rahmat", "Buning uchun Sizdan minnatdorman" deyish muhim.

4.

Ochiq muloqotga odatlaning. Muloqot – o'zaro ishonch va mas'uliyatning asosiy uslubidir. Haftalik "oilaviy suhbat soati" joriy qiling. Bu vaqtda har ikki tomon o'z hissiyotlari va fikrlarini erkin bayon etadi. Fikrini bildirgani uchun uni tanqid qilmang. Aks holda, sizga o'z fikrini bildirishni xohlamasligi yoki hayiqishi mumkin.

5.

Farzand tarbiyasiga bir xil yondashuvda bo'ling. Ota "har narsaga ruxsat" desa, ona "doim taqiqlovchi" bo'lsa, farzand tarbiyasida kelishmovchilik yuzaga keladi. Birgalikda qoidalar belgilash va ularga ota-ona ham amal qilishi kerak. Ota-onaning biri tomonidan qo'yilgan taqiqning ikkinchisi tomonidan ma'qullanishi farzandni uning jiddiy ekaniga ishontiradi.

6.

"Biz" degan so'zga o'rganing. "Men" va "sen" emas, "Biz nima qilamiz?", "Biz qanday yechamiz?", "Biz birga boshqaramiz" degan ifoda jamoaviylik va mas'uliyatni ta'minlaydi.

7.

Bir-biringizning vaqtingizni hurmat qiling. Er-xotin bir-birining vaqtini qadrlashi, uni behuda sarf qilmasligi, o'z vaqti bilan birga juftining vaqtiga ham ehtirom bilan yondashishi juda muhim.

8.

Mas'uliyatda farzand uchun o'rnak bo'ling. Farzand ota-onadan o'rnak oladi. Agar sizlar har qanday holatda bir-biringizning vazifangizni bilib, ado etsangiz, farzand ham kelajakda mas'uliyatli inson bo'ladi.

IJTIMOY VA DINIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT

Ota-onaning ijtimoiy va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati – jamiyatning ma'naviy barqarorligi va yangi avlod tarbiyasida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu munosabat ko'p jihatdan ularning shaxsiy dunyoqarashi, ta'lim darajasi, oilaviy muhit, diniy bilimlar hamda jamiyatdagi umumiy axloqiy muhit bilan belgilanadi.

Oilani rejalashtirishda nafaqat moddiy, balki ma'naviy asoslar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu ma'noda ijtimoiy, milliy va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat oilaviy muhitning ruhiy barqarorligini, farzand tarbiyasida ustuvor maqsadlarni belgilab beradigan asosiy tayanchlardan biridir. Bu qadriyatlar asosida uyg'un yashagan oila nafaqat jismonan, balki ma'nan sog'lom farzandni tarbiyalaydi.



IJTIMOY, DINIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR NIMA?



Ijtimoiy qadriyatlar – jamiyatdagi umumiy qabul qilingan xulq-atvor me'yorlari: mehnatsevarlik, rostgo'ylik qonunlarga rioya qilish, hamkorlik, naf keltirish, madaniyat, insonlarga hurmat va bag'rikenglik.

Yosh ota-onalar oila, mehnat, hurmat, mas'uliyat, adolat, tinchlik, milliy an'analar kabi ijtimoiy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Farzand tarbiyasida oilaning muqaddasligi, mehnatsevarlikni shakllantirish va o'zaro hurmat hamda tolerantlik ruhini singdirish asosiy ijtimoiy qadriyatlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Diniy qadriyatlar – yosh oilalar hayotida ma'naviy barqarorlik, axloqiy tartib va birdamlikni ta'minlovchi asosiy ustunlardan biridir. Ular ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda adolat, hurmat va mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlab, oilani turli sinovlardan asrab qolishda muhim rol o'ynaydi.



Ma'naviy qadriyatlar – bu yosh oilalarning shaxsiy va oilaviy hayotida yo'l boshchi bo'lib xizmat qiluvchi, ularning fikrlashi, hissiyoti, munosabatlari va tarbiya uslublarini shakllantiruvchi muhim axloqiy va ijtimoiy mezonlardir. Bunday qadriyatlar oilaning mustahkamligi, farzand tarbiyasi va jamiyatdagi sog'lom muhitni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.



Farzand dunyoga kelgach, u atrofdagilardan nimani ko'rsa, shunga taqlid qiladi. Agar ota-ona halol mehnatni qadrlasa, rostgo'y va odobli bo'lsa, vatanga va dinga muhabbatni namoyon etsa, bola ham shunday xislatlarni qabul qiladi. Buning natijasida, u jamiyat uchun foydali, ma'nan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi.

Islom dinida oila muqaddas deb qaraladi. Qur'oni Karim va hadislarda erkak va ayolning oiladagi o'rni, bolaga bo'lgan mas'uliyatlari, halol rizq topish, muhabbat va adolat haqida aniq ko'rsatmalar bor. Shu bilan birga, nikohga jiddiy yondashish, halollik va poklikda yashash kabi tamoyillar oilani rejalashtirishda ishonchli yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi.

Agar er-xotin bir xil diniy yoki milliy qadriyatlarga ega bo'lmasa, farzand tarbiyasida, turmushning boshqa sohalarida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, bir xil dunyoqarashga ega bo'lish, turmush qoidalarida yakdil fikr yuritish, an'ana va dinga bir xil munosabatda bo'lish kabi odatlar turmush qurishda oldindan hal qilinishi kerak bo'lgan muhim jihatlardir.

Unutmang!

Farzandingizning xulqi Sizdan olgan tarbiya natijasidir. Zero, ularning ezgu amallariga ham, yomon qilmishlariga ham Siz mas'ulsiz.



OILAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA OTA-ONALARGA MASLAHATLAR

1. Oilaviy qadriyatlar tizimini birgalikda belgilab oling.

Farzandli bo'lishni rejalashtirayotgan paytda, turmush o'rtog'ingiz bilan quyidagi savollarga javob bering:

»»» *Qanday farzand tarbiyalamoqchimiz?*

»»» *U qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak?*

Bu orqali axloq, diniy qarashlar, milliy an'analar, ijtimoiy mas'uliyat kabi ustuvor qadriyatlar belgilanadi.

2. O'zingiz namuna bo'ling.

Qadriyatlar farzandga so'z bilan emas, amal bilan o'rgatiladi. Masalan, rostgo'ylikni uqtirishdan ko'ra, o'zi rost so'zlaydigan ota-ona bola uchun kuchliroq o'rnamdir.

3. Qadriyatlarni hayot tarziga aylantiring.

Faqat bayramlarda yoki maxsus holatlarda emas, kundalik hayotda ham qadriyatlarni namoyon qiling:

»»» *milliy an'analarga amal qiling;*

»»» *dinimizdagi yuksak axloqiy fazilatlarini hayotga tatbiq qiling (masalan, tozalik, sabr, shukur);*

»»» *qo'shnichilik, saxovat, mehnatsevarlikni rag'batlantiring.*

4. Oilaviy qadriyatlar kundaligini yuriting.

Har hafta oila a'zolari o'zaro "Shu hafta qaysi qadriyatni amalga oshirdik?", "Qaysi xislatni o'rgandik?" kabi savollarga javob berib borishi kerak. Bu oilaviy suhbatlar uchun ham sabab bo'ladi.

5. Oilada kitobxonlik muhitini yarating.

Axloqiy, diniy va tarbiyaviy mavzulardagi kitoblarni birgalikda o'qing va muhokama qiling:

- »»» *bolalar uchun qissalar;*
- »»» *yozuvchilar asarlari;*
- »»» *Qur'on va hadislardan qisqacha matnlar;*
- »»» *ertaklar, xalq og'zaki ijodi namunalari va h.k.*

6. Farzand tarbiyasiga oid bilimlaringizni oshiring.

Qadriyatlarga asoslangan tarbiya uchun ota-onaning o'zi ma'nan yetuk bo'lishi kerak. Psixologiya, boladagi ong va tafakkur dunyosi, milliy ta'lim an'analarga oid ma'lumotlarni o'rganing.

7. Oilaviy an'analarni shakllantiring.

Har oy axloqiy suhbatlar kechasi, bolaga maktub yozish, oylik xayriya ishlari yoki birgalikda ziyorat, kutubxonaga borish kabi faoliyatlar qadriyatlarni amaliy jihatdan mustahkamlaydi.

8. Har kuni bir fazilatni faoliyatga aylantiring.

Masalan:



kabi har kuni shu fazilatda nimadir amalga oshirilsa, qadriyatlar odatga aylanadi.

FARZANDLI BO'LISHNI REJALASHTIRISH: MA'NAVIY TAYYORGARLIK

Farzand tug'ilishi – nafaqat fiziologik jarayon, balki ma'naviy va ruhiy jihatdan ham juda mas'uliyatli bosqich. Shu sababli, farzandli bo'lishni rejalashtirgan paytdan boshlab er-xotin o'rtasida sog'lom ma'naviy muhit yaratilishi talab etiladi.

Homiladorlik kacha bo'lgan davrda er-xotin o'z shaxsiy xulq-atvorini qayta baholashi lozim:

- »»» zo'ravonlik, g'azab, kibr kabi salbiy fazilatlardan voz kechish;
- »»» sabr, bag'rikenglik, kechirimlilik, mehribonlik kabi ijobiy sifatlarni rivojlantirish;



bolani qanday muhitda tarbiyalash haqida birgalikda fikr yuritish.

Bu bosqich ota-onalikka ma'naviy tayyorgarlikning amaliy qismi hisoblanadi.

Turmush o'rtoqlar o'rtasidagi muloqot sifati qanchalik yuqori bo'lsa, ruhiy muhit ham shunchalik sog'lom bo'ladi. Bu davrda bir-birini tinglash va tushunish, his-tuyg'ularni anglash, hayotiy maqsad va farzandga oid orzularni muhokama qilish juda muhim.

Homiladorlikgacha bo'lgan davrda, ayniqsa, ayol kishida ruhiy sezgirlik yuqori bo'ladi. Erkak tomonidan:



- doimiy tasalli berilishi, mehr va qo'llab-quvvatlash ko'rsatilishi;
- hayotdagi barcha qarorlarda qo'llab-quvvatlashi;
- birgalikda ma'naviy tadbirlarda (kitobxonlik, ma'rifiy suhbatlar) qatnashish ayolda o'zini qadrlangan va barqaror his etishga yordam beradi. Bu holat homilaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan ham isbotlangan.

Farzandli bo'lishni rejalashtirish paytida quyidagilar bolaning ruhiy holati va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi:



ona va otadagi har qanday ruhiy beqarorlik;



stress, xavotir, qo'rquv yoki notinchlik.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola hali tug'ilmasidan turib, onasining ruhiy holatini his qiladi va bu holat uning keyingi hayotidagi xarakter, stressga chidamlilik, empatiya va boshqa xususiyatlarini belgilaydi.



Axloqiy tayyorgarlik – bola dunyoga kelishidan oldin uni sog'lom muhitda, yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga ongli ravishda tayyorlanish jarayonidir. Bu tayyorgarlik faqat moddiy sharoit emas, balki "Kelajak avlodga qanday insoniy sifatlarni bermoqchimiz?", "Qanday jamiyatda uni ulg'aytiramiz?" degan savollarga javob berishdan iborat.



Axloqiy tayyorgarlikdagi asosiy maqsad farzandni ma'rifiy, vijdonli, mas'uliyatli, halol, mehribon shaxs qilib tarbiyalashga ongli tayyorgarlik ko'rishdir. Bu jarayonda ota-onaning shaxsiy fazilatlarini va munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Farzandli bo'lish faqat biologik jarayon emas, balki axloqiy va ma'naviy majburiyat hamdir. Shu bois, bola ko'rish niyati nafaqat "farzand istash", balki uni hayotga tayyorlash, o'z ortidan insonparvar, vatanparvar avlod qoldirish niyati bilan bo'lishi kerak.

Farzand tarbiyasi so'zdan emas, namunadan boshlanadi. Agar ota-ona rostgo'y, sabrli, kechirimli, muhtojga yordam beradigan shaxs bo'lsa, bu xususiyatlar bolaga ham axloqiy meros sifatida o'tadi. Bolalarning ko'pchiligi ota-onasidan ko'rgan fazilatlarini ongsiz ravishda qabul qiladi va o'z fe'l-atvorini shu asosda shakllantiradi.

FARZAND TUG'ILGAN ILK DAVRDA MA'NAVIY BARQARORLIKNI SAQLASH

Farzand tug'ilishi bilan otaga nisbatan jamiyatda, oilada va ichki hissiy dunyosida yangi vazifa yuklanadi. Bu rol moddiy ta'minlash bilan cheklanibgina qolmasdan, bolaga nisbatan mehr, himoya, hissiy yordam va hayotiy namuna ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi.

Ota farzand uchun tayanch va ishonch, ijtimoiy himoya manbayi, axloqiy namuna, halollik va mas'uliyat maktabi hisoblanadi.

Yangi tug'ilgan bola nafaqat ona, balki ota hissiy muhitiga ham muhtoj. Boladagi ruhiy barqarorlik va onadagi ichki quvvat ko'p jihatdan otaning munosabatiga bog'liq.

Ota uchun muhim hissiy funksiyalar:

1. Onani qo'llab-quvvatlash. Tug'uruqdan keyingi davrda onaning jismoniy va ruhiy holati o'ta sezgir bo'ladi. Bu vaqtda erkak tomonidan sevgi, sabr, yordam va himoya kerak.

2. Bolani qabul qilish. "Bu mening farzandim, men uni yaxshi ko'raman" degan hissiyot otalik ruhi uchun asosiy poydevordir. Qiz yoki o'g'il farzand tug'ilishi onaga emas otaga bog'liq. Dono xalqimizning "Nimani eksang shuni o'rasan" degan maqoli bejiz aytilmagan. Olimlarning tadqiqotlarida ham Y xromasoma (o'g'il) faqat erkak urug'ida mavjudligi X xromosoma (qiz) har ikkalasida ham mavjudligi isbotlangan. Ishonch hosil qilish uchun farzandingizning 9-sinf Biologiya kitobiga qarang.



3. Har kunlik muloqot. Bola bilan doimiy suhbat va munosabat ruhiy bog'lanishni shakllantiradi.

Psixologlar tadqiqotlariga ko'ra, otasi hissiy jihatdan faol bo'lgan bolalarda xavfsizlik hissi, ijtimoiy faollik va o'zini anglash qobiliyati yuqori bo'ladi.

Ota – farzand uchun ibratli inson. Uning har bir harakati, munosabati, so'zi, hatto sukut saqlashi ham bola uchun "axloqiy dars"dir.

Ota bolaga qanday axloqiy tarbiya berish kerak?

1. Oilani yaxshi ko'rish orqali. Oilani ardoqlash, onani hurmat qilish orqali bolaga muhabbat va mas'uliyatni o'rgatadi.

2. Faol ishtiroki bilan. Bola parvarishidagi ishtirok bolaga teng huquqlilik, mehr va ishonch hissining singdiradi.

3. Xatolarga munosabat orqali. Bolaga nisbatan g'azab emas, tushuntirish va o'z ustida ishlash madaniyatini ko'rsatsa, bola muammolarni hal qilishni o'rganadi.



Bola tug'ilgandan keyingi ilk haftalar – oilaning hissiy, jismoniy va ruhiy muhitdan eng zaif, ta'sirchan va nozik davri hisoblanadi. Bu vaqtda:

- ✓ *ona ruhiy va jismoniy charchoqni his etadi;*
- ✓ *ota mas'uliyatni to'liq his qilishi, lekin nima qilishni bilmasligi mumkin;*
- ✓ *yangi tug'ilgan chaqaloq to'liq e'tibor, parvarish va muhabbat talab qiladi.*

Agar bu davrda muhabbat o'rnini beparvolik va nosog'lom odatlar egallasa, oilaviy muhit izdan chiqadi. Shunday holatda mehr, sabr va bag'rikenglik eng katta ahamiyatga ega bo'ladi.

“**Mehr** – bu er-xotin o'rtasidagi qalbdan kelib chiqqan samimiy munosabat, o'zaro hurmat, g'amxo'rlik va ruhiy yaqinlikka asoslangan tuyg'udir.

Endi farzandli bo'lgan yosh oilalarda mehrni quyidagicha namoyon qilish mumkin:

1. Ota tomonidan:

- *onaga sevgi va mehr bilan yondashish: unga "Siz men uchun azizsiz", "rahmat Sizga" kabi ifoda qilish;*
- *bolani qo'lga olish, erkalatish, unga gapirish;*
- *uy ishlarida ko'maklashish va onaga yengillik yaratish.*

2. Ona tomonidan:

- *erkakni qadrlash, uning mehnatini e'tirof etish, maslahat so'rash;*
- *boladagi har bir o'zgarishni turmush o'rtog'i bilan baham ko'rish.*



3. Ikkala tomon:

- *bir-biriga iltifotli so'zlar aytish, kichkina sovg'alar berish, e'tibor ko'rsatish;*
- *kechki muloqot va shukur qilish odatini joriy etish.*

“**Sabr** – yosh bolali oilalar uchun eng kerakli ma'naviy vosita. Chunki bola tunda bezovta bo'ladi, ona charchaydi, asabiy bo'ladi, ota o'zini chetda qolganday his etadi. Bu vaziyatlarda har ikki tomon shoshmashosharlik va asabiylikdan voz kechib, insoniylik, donolik, yumshoq muomala va vazminlikni namoyon etishi kerak.

Oilada sabr muhitini yaratish yo'llari

1. *Oilada ma'naviy muhitni, sog'lom turmush tarzini va farzand tarbiyasini inobatga olgan holda kunlik reja tuzing.*
2. *Bir-biringizni tinglash va tushunishni odat qiling.*
3. *Og'ir vaziyatlarda zudlik bilan javob qaytarish o'rniga, biroz sukut saqlash yoki vaqtini belgilab, mulohaza qilish uchun fursat oling.*
4. *Muloqotda talaffuzda yumshoqlikka, so'zlarda mehr va hurmatga e'tibor bering.*

Yosh oilada bag'rikenglik – nafaqat samimiy munosabat, balki aql va qalb hamjihatligining ifodasidir. U barqaror nikoh, sog'lom muhit va axloqiy yuksak avlodni tarbiyalashning asosiy sharti hisoblanadi. Bag'rikenglik bor oilada muhabbat ham, hurmat ham doimiy bo'ladi.



2

OILADA NOSOG‘LOM MA’NAViy-AXLOQiy MUHIT: BELGILARI, SABABLARI VA OQIBATLARI



Nosog‘lom ma’naviy-axloqiy muhit – oilada o‘zaro hurmat, ishonch, muloqot va axloq me‘yorlari buzilgan, o‘zaro tushunmovchilik va ruhiy zo‘riqish ustuvor bo‘lgan vaziyat.

Oiladagi nosog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1.

Muloqotning yetishmasligi – er-xotin bir-biriga his-tuyg‘ularini bayon qilmasligi, o‘z dardini “ichda saqlash”ni afzal ko‘rishi, yuzma-yuz suhbatlar o‘rnini smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar va seriallar egallashi va h.k.

2.

Hurmatsizlik va e‘tiborsizlik – “Sen-men” deb murojaat qilish orqali kamsitish hissining uyg‘otilishi, juftingizning fikri va ehtiyojlari emas, balki do‘stlar, ish yoki boshqa odamlarning afzal ko‘rilishi, juftingizning hissiyotlari, qilgan mehnati qadrlanmasligi va h.k.

3.

Mas‘uliyatdan qochish – erkak ayolning ishini “ayollar ishi”, ayol esa erkakning yuki “meni qiziqitirmaydi” deb rad etishi, har bir maishiy yoki moliyaviy muammoga faqat bir tomon javob berishi, ikkinchi tomon esa qochishga harakat qilishi.

4.

Janjal va doimiy tortishuvlar – mayda gapni katta muammoga aylantirish, energiyani hech bir ijobiy yechimsiz tortishuvlarga sarflash, kunning har qanday voqeasi janjalga sabab bo‘lishi;

5.

Ishonchsizlik – er-xotin o‘rtasidagi ruhiy va ma’naviy aloqaning yo‘qolishi, biri ikkinchisiga ishonmasligi, u qilgan harakat yoki gaplarini gumon bilan qabul qilishi holati. Masalan, telefonni tekshirish, ijtimoiy tarmoqlarda kuzatish, “Kim bilan gaplashding?” deb so‘rash va h.k.

Yosh oiladagi nosog'lom muhit sabablari quyidagilardan iborat:

1. TAYYORGARLIKSIZ OILA QURISH



Ko'plab yoshlar turmush qurishni faqat rasmiy hujjat yoki muhabbat bilan bog'laydilar. Ammo hayot – doimiy hamkorlik, mas'uliyat va sabrni talab qiladigan jarayon.

Er-xotin orasida hayotning asosiy nuqtalari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi qarashlar bo'ladi. Masalan, farzand soni, ish-oila muvozanati, moliyaviy siyosati, qarindoshlarga munosabat.

2. OILAVIY MUNOSABATLARGA BO'LGAN TURLICHA YONDASHUVLAR



3. MODDIY QIYINCHILIKLAR



Daromadning kamligi, ishsizlik, qarzlar va moddiy barqarorlikning yo'qligi oilada ruhiy jiddiy zo'riqishni keltirib chiqaradi.

Hurmat, gapni tinglash, kechirish, rag'batlantirish, adolat bilan munosabatda bo'lish – axloqiy madaniyat mahsulotidir. Agar yoshlar ushbu me'yorlarni hayotga tatbiq etishni o'rganmagan bo'lsa, oilaviy munosabatlar murakkablashadi.

4. TA'LIM VA AXLOQIY TAYYORGARLIKNING PASTLIGI



5. OTA-ONA YOKI QARINDOSHLAR ARALASHUVI



Oila – erkak va ayolning faqat hayotini emas, qalbini, orzusini va mas'uliyatini birlashtiradigan muqaddas maskandir. Ammo ko'pincha yosh oilalarda qarindoshlar, ayniqsa, ota-onalar har bir masalaga aralashadi, qaror qabul qilishda "boshqaruvchi kuch"ga aylanishadi.

Nosog'lom muhitning qator salbiy oqibatlari mavjud. Xususan:

1. Ruhiy uzoqlashish.

Oila a'zolari jismonan bir joyda yashagan bo'lsa-da, ruhan, hissiy jihatdan uzoqlashadi. Hissiy yaqinlik, mehribonlik, hamdardlik va bir-birini eshitish tuyg'usi yo'qoladi.

2. Farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir.

Bolalar uchun eng birinchi maktab – oila. Agar oilada hurmatsizlik, janjal, befarqlik hukm surayotgan bo'lsa, bu farzandning ruhiy dunyosida chuqur iz qoldiradi. Bunday muhitda o'sgan bola keyinchalik o'z oilasini qurganda ham o'sha xatolarni takrorlash ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuningdek, u maktabda, jamoada, kelajakdagi munosabatlarda ham moslashishda qiyinchilikka uchraydi.

3. Ajrashish xavfi.

Ruhiy uzoqlashish, muhabbatning so'nishi, ishonchsizlik, muloqotsizlik, hurmatsizlik va e'tiborsizlik ajralishning eng katta sabablaridan biridir.

OILADAGI MA'NAViy-AXLOQiy MUHITNI YAXSHILASH BO'YICHA OTA-ONALARGA MASLAHATLAR



1. Niyatingizni pok qiling va ma'naviy maqsad qo'ying.

Oila qurish yoki farzandli bo'lish faqat insoniy ehtiyoj emas, balki ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatdir. Shu bois, har ikki tomon oilaviy hayotga qadam qo'yar ekan, niyatni pok qilishlari, ma'naviy maqsadlar qo'yishlari, insoniylik, bag'rikenglik va mas'uliyat bilan yashashni asos qilib olishlari kerak.

2. Ma'rifiy suhbatlarni yo'lga qo'ying.

Oilada ma'naviy muhitni shakllantirish uchun:

1. Haftasiga bir kun "ma'rifiy kecha" tashkil qiling. Masalan, sevimli kitobdan parcha o'qing, hadis muhokama qiling, biror hayotiy mavzuda fikr almashing.

2. "Savol va tafakkur" kuni tashkil qiling. "Oilamizdagi eng muhim qadriyat nima?", "Bugun bir-birimizni xursand qildikmi?" kabi fikr-mulohazalar yuring.

3. Mehr, sabr va bag'rikenglik muhitini shakllantiring.

Mehrsiz muhitda ma'naviy muhit yaralmaydi. Shu sababli:

1. Har kuni kamida uchta iltifotli so'z aytib, bir-biringizni rag'batlantiring. "Rahmat", "Siz men uchun qadrlisiz", "Sizga suyanaman" deyish mumkin.

2. Sabr va bag'rikenglik bilan kamchiliklarni qabul qiling. Har kimning xatosi bo'lishi mumkin. Tanqid o'rniga tushurishni tanlang.

3. Ota va onalik davrida asablargizni jilovlang. Ularning tarbiyasiga sabr bilan yondashing. Sabr sevgi va xursandlikka olib boradi.

4. Farzand ko'rishni rejalashtirishda ma'naviy muhitni shakllantiring.

Farzand dunyoga kelgunga qadar:

- sog'lom, tinch va ma'naviy muhit yaratish kerak.
- har ikki tomon pok niyat, sabrlilik, sog'lom hayot tarzi, ibratli xulq-atvor bilan farzand uchun namuna bo'lishi kerak.

5. Ma'naviy kun tartibini joriy qiling.

Oilada har kuni quyidagilarni tashkil qilib, ularga amal qiling:

1. "Ilm vaqti": ma'rifiy kitoblar o'qish, dars qilish, fikr yuritish va mulohaza qiling;
2. "Shukur vaqti": kun davomida sodir bo'lgan ijobiy holatni eslang;
3. "Suhbat vaqti": bir-biringizni diqqat bilan tinglang;
4. "Minnatdorlik vaqti": har kuni "rahmat" aytiladigan harakat.

6. Ixtilof va muammolarni hal qilish madaniyatini o'rgating.

Bular:

- ✓ *muammoni aniqlash;*
- ✓ *his-tuyg'ularni tinch yo'l bilan bayon etish;*
- ✓ *ikki tomonni tinglash;*
- ✓ *muhokama qilish;*
- ✓ *yechim taklif qilish;*
- ✓ *qaror qabul qilish.*

7. Farzandingizga axloqni so'z bilan emas, amalingiz orqali o'rgating.

Farzand tarbiyasi – so'z bilan emas, amal bilan bo'ladi.

Farzand Sizing so'zingizdan ko'ra, harakatingizni kuzatadi.

Agar ota-ona bir-birini hurmat qilsa, bola jamiyatda o'z o'rniga ega inson bo'ladi.

Agar oilada ruhiy osoyishtalik va ma'naviy muhit hukm sursa, farzand baxtli ulg'ayadi.

“**Ma'naviy-axloqiy muhit** – oilaning mehr manbayi. Uni yaxshilash uchun muhabbat va hurmat ustuvor bo'lishi, ma'rifatli suhbatlar, shukr, tinchlik muhiti yaratilishi, farzandga namuna bo'luvchi fazilatlar joriy etilishi kerak. Ma'naviy muhit kuchli bo'lgan oilada er-xotin munosabatlari mustahkam, farzand baxtli, oila jamiyat uchun ibratli bo'ladi.

XULOSA

Oila inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy muhiti jamiyatning rivojlanishi va barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Sog'lom oilaviy muhit farzandlarning axloqiy kamoloti, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijobiy fazilatlar bilan shakllanishini ta'minlaydi. Aksincha, nosog'lom ma'naviy-axloqiy muhit bolalarning psixologik holatiga salbiy ta'sir qilib, ularning jamiyatga moslashuvini qiyinlashtiradi.

Oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda ota-onalarning o'zni beqiyosdir. Ular o'z harakatlari, muomalalari va qarashlari orqali farzandlariga namuna bo'ladilar. Oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, tushunish va qo'llab-quvvatlash muhiti bolalarni odob-axloq qoidalariga rioya qiluvchi insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, ota-onalar farzandlariga nafaqat so'z bilan, balki o'zlarining shaxsiy namunasi orqali ham axloqiy fazilatlarni o'rgatishlari kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya oilaviy qadriyatlar, an'analar va diniy tushunchalar orqali shakllanadi. Milliy va diniy qadriyatlar oilada axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Oilada halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va mas'uliyat hissini shakllantirish jamiyatda o'zini tuta biladigan, o'z burchlarini anglaydigan shaxslarning yetishishiga olib keladi.

Oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitning ijobiy bo'lishi, avvalo, ochiq muloqot, tushunish va bir-birini qo'llab-quvvatlashga bog'liq. Oila a'zolari o'rtasida samimiy muloqot bo'lsa, ularning his-tuyg'ulari inobatga olinsa, oila mustahkam va baxtli bo'ladi. Aksincha, oilaviy nizolar, hurmatsizlik, boshqalar bilan tinimsiz solishtirish, ishonchsizlik, e'tiborsizlik va befarqlik muhitning nosog'lom bo'lishiga olib keladi.

Shuningdek, oilani birlashtiruvchi asosiy fazilatlar mehr-muhabbat, ishonch, sabr-toqat, bag'rikenglik va mas'uliyat hissidir. O'zaro hurmat va sadoqat oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga, bolalarning esa o'z oilasini sevishiga olib keladi. Oila a'zolari bir-birini qadrlagan, har qanday qiyinchiliklarni birgalikda yengishga intilgan taqdirda oila yanada mustahkam bo'ladi.

OILA VA GENDER
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

M.QURONOV, X.ABDURAMANOV

OILANING MA'NAVIY- AXLOQIY MUHITI

USLUBIY QO'LLANMA

"Pages print" nashriyoti,
Toshkent – 2025

Nashr uchun mas'ul: **B.Mavlonov**
Muharrirlar: **U.Yunusov,**
E.Sultonov
Badiiy muharrir: **F.Sobirov**
Sahifalovchi: **L.Abdullayev**

Nashriyot ro'yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.

Bosishga ruxsat etildi: 8.05.2025.

"Segoe UI" garniturası. Qog'oz bichimi: 70x100 $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog'i 2,6.

Toshkent shahri, Olmazor tumani,

Chimboy ko'chasi, 8-uy.

"Pages print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy ko'chasi, 8-uy.

Ushbu qo'llanmada oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida o'zaro mas'uliyatni oshirish haqida so'z boradi. Qo'llanma mualliflari yosh ota va onalar bilan dildan suhbat qurishni maqsad qilishgan.

Qo'llanmada oilaning ma'naviy-axloqiy muhiti, nosog'lom ma'naviy-axloqiy muhit, oilaviy muhitni yaxshilash yo'llari, oilada noxush voqealarning oldini olish, ma'naviy-axloqiy tarbiya, mehr-oqibat muhitini yaratish, oilani birlashtiruvchi fazilatlar masalalari yoritilgan.

ISBN 978-9910-8038-0-2



9 789910 803802

